

ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMINING KLINIK DIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYA IMKONIYATLARI YOSHLAR PSIXOLOGIYASIDA

Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Toshkent tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16752167>

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy yoshlar orasida kuzatilayotgan “Maugli sindromi”ning psixologik-psixiatrik tabiatini klinik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag’ishlangan. Internetga haddan tashqari qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya va oilaviy-emotsional beqarorlik natijasida shakllanayotgan mazkur sindrom, shaxsning identiteti, ijtimoiy rol va axloqiy qadriyatlarni qabul qilishida jiddiy buzilishlarga olib kelmoqda. Maqolada ushbu sindromning klinik simptomatikasi, diagnostika mezonlari, psixodinamik va nevropsixologik yondashuvlar asosida tavsifi beriladi. Shuningdek, yoshlar psixologiyasida bu holatga nisbatan qo’llanilayotgan zamonaviy psixokorreksion metodlar – kognitiv-xulqiy terapiya, art-terapiya va interaktiv guruh mashg’ulotlari samaradorligi tajriba asosida baholanadi. Muallif, yoshlar ongida ijtimoiy moslashuv va axloqiy qadriyatlarni qayta shakllantirish orqali Maugli sindromini yumshatish, shaxsiy identitetni mustahkamlash va psixologik reabilitatsiya yo’llarini asoslashga harakat qiladi. Mazkur tadqiqot psixologiya va ta’lim sohasi mutaxassislari, ijtimoiy ishchilar hamda ota-onalar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: Maugli sindromi, yoshlar psixologiyasi, internet qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, shaxs identiteti, klinik diagnostika, psixokorreksiya, kognitiv-xulqiy terapiya, emotsional buzilishlar, reabilitatsiya.

Kirish: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur singib borgan bir davrda yashayotgan bugungi yosh avlod oldida yuzaga kelayotgan psixologik, ijtimoiy va emotsional muammolar ko’lami tobora kengaymoqda. Shu jumladan, internet texnologiyalarining haddan ziyod va nazoratsiz qo’llanilishi, ayniqsa yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo’lmoqda. Aytish joizki, bu holat nafaqat tashqi ijtimoiy muhitdan ajralish, balki ichki identitet – shaxsiy o’zlikning buzilishi, ijtimoiy rollarning parchalanishi va emotsional-empartik defitsit kabi holatlarni keltirib chiqarishi bilan xavfli hisoblanadi. Bunday ijtimoiy-psixologik holatlarning eng yangi kontseptual talqinlaridan biri – bu “Zamonaviy Maugli sindromi” (Modern Mowgli Syndrome) tushunchasidir. Ushbu sindrom psixologiya fanining yangi yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda va u ijtimoiy izolyatsiya, texnologik qaramlik va kommunikativ regress holatlari bilan belgilanadi. Mazkur sindromning nomlanishi va semantik konnotatsiyasi Kiplingning “Jangal kitobi” asaridagi insonlar jamiyatidan uzilgan va hayvonlar orasida ulg’aygan bola – Maugli obraziga borib taqaladi. Bugungi yosh avlod ham, texnologik jungli – ya’ni virtual dunyo muhitida sotsializatsiya qilinmay, aksincha, ijtimoiy aloqalar o’rnini sun’iy muhitdagi monologik tajribalar egallagan bir sharoitda ulg’aymoqda. Bu esa shaxsiy identitetning shakllanishiga bevosita salbiy ta’sir ko’rsatadi. Zamonaviy psixologiyada ushbu sindrom ijtimoiy-psixologik disfunksiyaning yangi shakli sifatida talqin qilinmoqda va u shaxs ongining kognitiv, affektiv va volitiv komponentlarining regresiya holatida ifodalanishi bilan tavsiflanadi[1]. Zamonaviy Maugli sindromining dolzarbligi, eng avvalo, uning ijtimoiy psixologik oqibatlarini bilan bog’liq bo’lib, bunda shaxs tashqi dunyo bilan real kommunikatsiya o’rniga virtual stimullarga haddan ziyod bog’lanib qoladi. Bunday holatda shaxs o’zining ijtimoiy identifikatsiya jarayonini to’xtatadi, o’z-o’zini anglash faoliyatida dissonans holatlari

vujudga keladi. Yoshlik davri esa shaxsning yetuklikka o'tish bosqichidagi eng sezuvchan, ijtimoiy normativlarga nisbatan ochiq bo'lgan bosqich hisoblanadi. Shu sababli ham, bu bosqichda yuzaga keladigan Maugli sindromi holatlari hayot davomida davom etuvchi psixik disfunktsiyalarga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu sindrom klinik-psixologik jihatdan ham o'ziga xos tashxis mezonlariga ega bo'lib, asosan quyidagilar orqali aniqlanadi: emotsional befarqlik, kommunikativ motivatsiyaning pasayishi, ichki reaktivlikning pasayishi, real ijtimoiy jarayonlarga nisbatan indifferentlik holatlari. Yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan olganda, bu sindrom ularning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasiga jiddiy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, ijtimoiy rollarni egallash, empatiya hissi, sotsial adaptatsiya, o'z-o'zini baholash va motivatsion o'sish kabi psixologik indikatorlar bu sindrom natijasida keskin pasayadi. Eng xavflisi, zamonaviy yoshlar bu sindromni patologik holat sifatida emas, balki o'zlarining "normal" sotsial mavjudlik formasi sifatida qabul qiladilar. Bu esa zamonaviy psixologik yordam metodlarining yangilanib borishini, xususan, Maugli sindromining psixokorreksiya imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu sindrom bilan bog'liq masalalar ko'proq klinik psixologiya va neyropsixologiya doirasida tahlil qilinmoqda. Masalan, rus olimlaridan biri O.S. Nikolayev ushbu sindromni "digital dissotsiatsiya" fenomeni bilan bog'lab, unda shaxsiy ong fragmentatsiyasining yuzaga kelishini asoslab beradi[2]. Unga ko'ra, Maugli sindromi shunchaki axborot texnologiyalariga qaramlik emas, balki to'laqonli sotsializatsiya jarayonining o'rnini egallagan virtual ssenariylarning dominantligi bilan tavsiflanadi. Aksincha, A.V. Shepel ushbu sindromni "transient ijtimoiy ko'rinish" deb baholaydi va unda yoshlar ijtimoiy rollarni vaqtincha rad etish orqali yangi identitet shakllantirishga harakat qilayotganini ta'kidlaydi[3]. Bu ikki pozitsiya orasidagi farq shundaki, birinchisi sindromni patologiya deb bilsa, ikkinchisi uni sotsiokultural tranzitsiya deb talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, mazkur maqolaning dolzarbligi bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, zamonaviy yoshlar orasida ushbu sindromning keng tarqalganligi, uning klinik-psixologik tahlilini talab qiladi. Ikkinchidan, mavjud psixokorreksiya metodlarining ushbu holatga nisbatan yetarlicha samaradorlik ko'rsatmasligi, yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini tug'diradi. Uchinchidan, mazkur sindromning sotsial psixologik ildizlari chuqur o'rganilmasdan turib, ijtimoiy rehabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqish imkonsiz bo'lib qoladi[4]. Shu munosabat bilan, maqola doirasida quyidagi ilmiy muammolarga e'tibor qaratiladi: Maugli sindromining klinik tashxis mezonlari qanday? Ushbu sindrom yoshlar ongida qanday regressiv jarayonlarga sabab bo'ladi? Uni korreksiya qilishda qanday psixoterapevtik metodlar samarali bo'lishi mumkin? Shuningdek, ushbu sindromning sotsial-psixologik kechinmalar orqali qay darajada kuchayishi mumkin? Shuningdek, maqolada zamonaviy yoshlar ongida kuzatilayotgan identitet krizisi, uning internet va sotsial media orqali chuqurlashuvi, psixologik yordam tizimining ahvoli va individual rehabilitatsiya dasturlarining zaruriyati haqida fikr yuritiladi. Bu orqali shaxsiy va ijtimoiy salomatlik o'rtaqidagi bog'liqlik, ichki va tashqi sotsial omillarning murakkab o'zaro ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar fonida "Maugli sindromi" tushunchasining klinik-psixologik kontekstdagi dolzarbligi kundan-kunga ortib bormoqda. Bu atama, ayniqsa, yoshlar orasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya oqibatida shakllanayotgan shaxsiy-ijtimoiy moslashmovchilik holatlarini ifodalash uchun qo'llanmoqda. XXI asr jamiyati – raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, virtual haqiqat, ijtimoiy tarmoqlarning uzluksiz oqimi va metavers kabi fenomenlar bilan boyitilgan murakkab muhitdir[5]. Bunday sharoitda shaxs

taraqqiyotining individual yo'nalishlari, ayniqsa, o'smirlar va yoshlar orasida psixologik izolyatsiya va real ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi bilan bog'liq holda, inson identitetining parokandalashuvi, ruhiy-emotsional tanazzul holatlari va psixopatologik ko'rinishlari bilan ajralib turmoqda. Aynan shu nuqtada "zamonaviy Maugli" fenomeni global psixologiya uchun yangi tadqiqot vektoriga aylanmoqda. Dunyoda bu masalaga oid ilmiy yondashuvlar ko'plab xalqaro psixologik konferensiyalar, klinik psixologiya jurnallari va dissertatsion tadqiqotlar orqali chuqur o'rganilmoqda. Masalan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya va Xitoyda olib borilayotgan tadqiqotlar psixokorreksiya metodlarini ishlab chiqish, yoshlarning virtual muhitga haddan tashqari berilib ketishi oqibatida yuzaga keladigan shaxsiy deviantlik, hissiy emotsional sovuqlik, empatik tanazzul va autistik simptomlarga qarshi kurashishda dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. Yevropa Ittifoqida esa "Digital Youth Mental Health" loyihasi doirasida aynan ushbu sindromga yaqin simptomatika ko'rsatgan yoshlar bilan ishlashda kognitiv xulqiy terapiya, art-terapiya, musiqiy terapiya va guruhli psixologik reabilitatsiya uslublarining samaradorligi o'rganilmoqda[6]. Zamonaviy Maugli sindromining dolzarbligini, bir tomondan, uning universal tabiati bilan bog'liq. Chunki ushbu sindrom antropologik jihatdan izolyatsiyalangan bolalar yoki ijtimoiy-axloqiy tizimdan chetda shakllangan shaxslarning ruhi va ongini ifodalaydi. Endilikda esa bu holat biologik emas, balki virtual ijtimoiy muhitga ortiqcha bog'lanish natijasida yuzaga kelmoqda. Yani, inson atrofidagi real dunyodan uzilib, raqamli muhitga singib ketmoqda, bu esa psixik jarayonlarning disfunktsiyasini yuzaga keltiradi. Internetga qaramlik, onlayn o'yinlarga mukkasidan ketish, metavers hayot tarzini real hayotga almashtirish kabi hodisalar yoshlarning emotsional rivojlanishini, empatiya qobiliyatini va sotsial moslashuv darajasini jiddiy darajada pasaytiradi. Bu esa butun jamiyat uchun xavfli epidemiologik ijtimoiy-psixologik holatga aylanmoqda. Ikkinchi tomondan, zamonaviy Maugli sindromining diagnostik mezonlarini aniqlash, u bilan og'rigan yoshlarni erta bosqichda aniqlab, samarali psixokorreksiya strategiyalarini ishlab chiqish, amaliy psixologiya bo'yicha dolzarb vazifasiga aylanmoqda[7]. Ayniqsa, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko'nikmalar, hissiy anglash qobiliyatlari, o'z-o'zini baholash va identitet shakllanishida og'ir regressiv holatlar kuzatilmoqda. Shuningdek, ruhiy salomatlikning asosiy indikatorlari bo'lgan ijtimoiy faollik, axloqiy javobgarlik, refleksiya va o'zini anglash kabi mezonlarda sustlik yuzaga kelmoqda. Bu holat xalqaro diagnostik tizimlar – ICD-11 va DSM-5 mezonlari asosida yangi klinik birlik sifatida tan olinayotgan yo'nalishga aylanmoqda. Shuningdek, dunyo psixologlari orasida ushbu sindromning klinik namoyon bo'lish shakllari, uning psixopatologik zaminlari, terapiyaviy yondashuvlari va reabilitatsiya mexanizmlari borasida keng qamrovli ilmiy polemikalar davom etmoqda. Masalan, AQShdagi UCLA universitetining psixiatriya fakulteti tomonidan olib borilgan izlanishlarda zamonaviy Maugli sindromi autizm spektr buzilishlariga yaqin, ammo mutlaq ijtimoiy izolatsiyaga asoslangan psixodinamik uzilishni ifodalashi ta'kidlangan. Shu bilan birga, Rossiya olimlari bu sindromni dissotsiativ shaxsiylik buzilishi bilan chambarchas bog'lashmoqda va uning asosida travmatik izolyatsiya emas, balki ataylab tanlangan virtual erkinlikning psixik inqirozi yotishini ta'kidlamogdalar.

Zamonaviy Maugli sindromi fenomeni zamirida yotgan ijtimoiy izolyatsiya, internet qaramligi, shaxs identitetining buzilishi kabi psixologik muammolar zamonaviy g'arb va sharq psixologiyasi olimlari o'rtasida keskin ilmiy polemikalarga sabab bo'lmoqda. Bu borada ikki nufuzli xorijiy olim – amerikalik psixolog Sherry Turkle va nemis psixiatr-professori Manfred Spitzer o'rtasida kechgan ilmiy qarama-qarshilik ayniqsa dolzarbdur. Sherry Turkle, MIT

professori va "Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other"[8] asarida raqamli texnologiyalar insonni jamiyatdan ajratayotganini ilmiy asosda yoritadi. U zamonaviy Maugli sindromi mohiyatini raqamli izolyatsiyaning kuchaygan formasi sifatida izohlaydi va shaxsning identiteti, emotsional rivojlanishi sun'iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida deformatsiyalanayotganini ta'kidlaydi. Turklega ko'ra, yoshlar internet orqali o'z "men"ini yaratmoqda, biroq bu virtual "men"lar real hayotda muloqot va empatiya kabi ijtimoiy ko'nikmalarni zaiflashtiradi. U texnologik aloqa vositalarining haddan tashqari ko'p ishlatilishi insonlarda ijtimoiy yolg'izlik hissini kuchaytiradi, bu esa zamonaviy Maugli sindromining klinik ifodasiga olib keladi, deb hisoblaydi. Bunga qarama-qarshi yondashuvni Manfred Spitzer "Digital Dementia"[9] asarida ilgari suradi. U raqamli texnologiyalarni faqat izolyatsiya yoki identitet buzilishi emas, balki miya faoliyatining rivojlanishiga tahdid soluvchi omil sifatida baholaydi. Spitzer, ayniqsa bolalar va o'smirlar orasida internetdan haddan tashqari foydalanish miyaning frontal korteksida degenerativ o'zgarishlarga olib kelishini isbotlaydi. U zamonaviy Maugli sindromi belgilarini, xususan, muloqotdan chekinish, hissiy uyg'unlikning buzilishi, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq uzilishlarni biologik va neyropsixologik jihatdan tahlil qiladi. Spitzerning fikricha, internet nafaqat ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi, balki nevrologik darajada zarar yetkazadi, bu esa zamonaviy Maugli sindromining neyropsixologik klinikasini shakllantiradi[10]. Turkle va Spitzer o'rtasidagi ilmiy polemika, asosan, sabab-oqibat munosabatlariga yondashuvda farq qiladi. Turkle texnologiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlariga urg'u berib, insoniy munosabatlarning dezintegratsiyasi haqida gapirsa, Spitzer esa texnologiyaning neyrobiologik zararli ta'sirini tahlil qiladi. Har ikkala olim ham zamonaviy Maugli sindromining mavjudligini tan oladi, biroq bu sindromning sabablari va oqibatlarini tushuntirishda turli fanlar yondashuviga tayanadi. Shu orqali ular orasida chuqur metodologik polemika vujudga keladi – biri fenomenologik va sotsiopsixologik asosda tahlil yuritisa, ikkinchisi esa eksperimental va neyropsixologik asosga tayangan. Bu ilmiy qarama-qarshiliklar zamonaviy psixologiyaning raqamli transformatsiyaga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi kerakligi borasida dolzarb savollarni o'rta tashlaydi. Turkle raqamli davrga mos psixoterapevtik yondashuvlar, muloqotga qaytish va emotsional tiklanish zarurligini ilgari sursa, Spitzer esa qat'iy profilaktika, yoshlar ongini raqamli detoks orqali tozalashni taklif qiladi. Shunday qilib, Turkle va Spitzerning polemikasi zamonaviy Maugli sindromi atrofidagi fundamental ilmiy bahslarning klassik namunasi bo'lib, global psixologiya fanida yangi metodologik izlanishlar uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Xulosa: XXI asr texnologik inqilobi va raqamli muhitning global miqyosda kengayishi natijasida, inson psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan yangi ijtimoiy va psixologik hodisalar yuzaga kela boshladi. Ular orasida "Zamonaviy Maugli sindromi" atamasi bilan ifodalanayotgan kompleks psixik buzilish ayniqsa yoshlar ongida xavfli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur maqolada ushbu sindromning yuzaga kelish omillari, klinik belgilari, shaxsiy identitetga salbiy ta'siri, diagnostik mezonlari hamda psixokorreksiya imkoniyatlari chuqur ilmiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, virtual olamga haddan ortiq qaramlik, real hayotdan ijtimoiy chekinish, hissiy aloqalarning yo'qolishi, shaxsiy muvozanatning buzilishi kabi belgilar zamonaviy Maugli sindromining yetakchi simptomlarini tashkil qiladi. Bunday holatlarning chuqurlashuvi o'smir va yoshlar orasida ijtimoiy moslashuv darajasining keskin pasayishiga, o'zini anglash va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishdagi muammolarga, ijtimoiy izolyatsiyaga va hatto depressiv, nevrotik holatlarga olib kelmoqda. Psixologik va psixiatrik yondashuvlar bu sindromni tan olishni talab qiladi, chunki u shaxs taraqqiyotiga bevosita salbiy

ta'sir etuvchi yangi davr psixopatologiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, diagnostika jarayonida nafaqat klinik belgilarga, balki ijtimoiy-psixologik omillarning tahliliga, shuningdek, axborot-texnologik vositalar bilan shaxs o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham e'tibor qaratish zarur. Psixokorreksiya jarayonida esa kognitiv-xulqiy terapiya, gestalt terapiya, oila psixoterapiyasi va media savodxonlik asosida yo'naltirilgan psixologik dasturlar qo'llanilishi lozim. Mazkur usullar virtual dunyodan real hayotga moslashtirish, shaxsning ichki motivatsiyasini tiklash va o'z-o'zini anglash jarayonlarini rag'batlantirishda ijobiy samara beradi. Bundan tashqari, jamiyat miqyosida profilaktika ishlari, oilaviy va ta'lim muassasalarida ruhiy sog'lomlashtirish strategiyalarining joriy etilishi bilan zamonaviy Maugli sindromining keng tarqalishining oldi olinishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy Maugli sindromi bugungi raqamli jamiyatda psixologik salomatlik uchun dolzarb tahdid bo'lib, uning kompleks diagnostikasi va psixokorreksiyasi ilmiy yondashuvni talab qilmoqda. Ushbu sindromga qarshi samarali kurashish faqatgina individual psixoterapevtik chora-tadbirlar bilan emas, balki makroiijtimoiy darajadagi tizimli ishlanmalar, siyosiy-psixologik qarorlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari hamda ilg'or psixopedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Shu ma'noda, mazkur ilmiy izlanish zamonaviy yoshlar psixologiyasining o'ta muhim yo'nalishini tashkil etib, kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlarga nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turkle Sh., Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other, Basic Books, New York, 2011, 384 bet
2. Tarakanova G.A., Muromtseva L.M., 'Internet-zavisimost' i osobennosti sotsial'noy identifikatsii podrostkov, Voprosy psikhologii, Moskva, 2018, №4, 112–120-betlar
3. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIIY FALSAFADA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
4. Cосновцева М. С. The impact of socialization on the psyche and development of children //СиБАДИ. – 2020. – C. 364.
5. Petrova E., Gnatik E. The Transformation of the Environment in the Digital Age //5th International Conference on Contemporary Education, Social Sciences and Humanities-Philosophy of Being Human as the Core of Interdisciplinary Research (ICCESSH 2020). – Atlantis Press, 2020. – C. 131-134.
6. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. TENDENCY IN USE OF EPONYMS BASED ON MODERN LITERARY NAMES //«Абылай хан атындағы ҚазХҚжәнеӘТУ Хабаршысы Филология ғылымдары сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
7. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
8. Steyn L., Barnard A. The coaching experience as identity work: Reflective metaphors //SA Journal of Industrial Psychology. – 2024. – T. 50. – C. 2132.

9. Diloram M., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.
10. Shestopalov E.V., Virtualnaya realnost i razvitie lichnosti podrostkov, Sankt-Peterburg, Psikhologicheskiy tsentr, 2022, 310 bet

